

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



Buxoro davlat
universiteti rektori, X. Xamidov

2021-yil "30" avgust

O'RGANILAYOTGAN TIL NAZARIY ASPEKTLARI
O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 200 000 – San'at va gumanitar fanlar

Ta'lim sohasi: 230 000 – Tillar

Ta'lim yo'nalishlari: 60 230 100 – Filologiya va tillarni
o'qitish (roman-german filologiyasi)
60 230 200 – Tarjima nazariyasi va

Fan/modul kodi O'TNA 1116	O'quv yili 2023/2024	Semes tr 5-6	ECTS – Kreditlar 16
Fan/modul turi Majburiy fan	Ta'lim tili Ingliz		
	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Haftadagi dars oatlari 16
I.	O'rganilayotgan til nazariy aspektlari	240	240
	I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarni til to'g'risidagi asosiy nazariy tushunchalar, ehet tilni o'rganishning uslub va yondashuvlari, tilning ilmiy bilimlar tizimida turgan o'rn va ahamiyati bilan tanishtirish, ularga til san'atlarining mutaqiy muloqot jarayonida kuzatiladigan asosiy qonuniyatlarini o'rgatishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarida tilning lekki tuzilmasi, til qatlamlari va birliklarini ilmiy asosda tadqiq etish ko'nikmalarini shakllantirish hamda ularning bir-biri bilan o'zaro munosabatlari to'g'risida ilmiy-nazariy tushunchalarga ega bo'lishlarini ta'minlash vazifalarini bajaradi.	480	
	II. Asosiy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: Leksikologiya 1-mavzu. Leksikologiya faniga kirish Fanning mazmuni. Leksikologiya terminining paydo bo'lishi va rivojlanishi. Leksikologiyaning boshqa fanlar bilan bog'liqligi. Fanning predmeti va obykti, fanning metodi va ishlatish yo'llari. Leksikologiya fanining bo'limlari va uning boshqa qismlari bilan bog'liqligi. 2-mavzu. Semasiologiya So'z til lug'at tarkibining asosiy birligi sifatida, So'zning morfema, so'z shakli, so'z birkimasidan farqli xususiyatlari, Motivatsiya tushunchasi, Idiomatika va motivatsiya turlari: fonetik, morfologik, semantik. Ma'no va so'z ma'nosining tuzilishi. O'rganilayotgan til, ona tili va boshqa tillardagi		

so'zlarning semantik tuzilishi. So'z ma'nosining tuzilishini o'rganishda paradigmatika va sintagmatikaning roli. Kontekst va uning turlari. Sodda, tub, yasama va qo'shma so'zlarning o'ziga xos ma'nolari. So'z ma'nosi va uning tuzilishi. Frazеologik birliklar ma'nolarining xususiyatlari, ma'no turlari tasnifi. So'zning leksik- semantik variantlari. Ma'no tuzilishida sinxronik va diaxronik qarashlar va uning rivojlanish qonuniyatlari. Lug'at birligini semantik guruhlarga ajratish. Semantik maydon. Monosemiya, polisemiya, giperonimiya va giponimiya muammolari. Sinonim, antonim va omonimlar masalalari, va ularning manbalari, tasnifi, tilni boyitishi va til rivojlanishidagi ahamiyati.

3- mavzu. So'zning morfologik tuzilishi

Bir va ko'p morfemali so'zlar. Morfemaning leksik birlik ekanligi. Morfemalar turlari va sinflari. So'z negizi va uning turlari. Hozirgi zamon ingliz tilida so'z tuzilishining turlari. So'z tuzilishiga diaxronik va sinxronik qarash. Morfemalar yasash. Morfema va allomorfemalar. So'z tuzilishini morfemik tahlil qilish asoslari va ularning so'z yasash tahlilidan farqi.

4-mavzu. So'z yasash

So'z yasash usullari. So'zning asosiy tarkibiy qismlari. So'z negizi. O'zakning tuzilishi va semantikasi. Keng va kam tarqalgan usullar bilan so'z yasash. Leksik nomlashda so'z yasashning roli va o'rnini. So'z yasash qatorlari zanjiri. Old qo'shimchalar va ularning turlari. Har xil mezonlarga asoslanib old qo'shimchalarni tasnif etish. O'zak old qo'shimchalarning semantikasi. YArim old qo'shimchalar yordamida so'z yasash. Konversiya, uning kelib chiqishi va asoslari. So'z yasash yo'lini aniqlashda konversiyadagi semantik aloqalarning asosiy mezon ekanligi. Konversiyaning keng tarqalganligini belgilovchi asosiy omillar. Konversiyani tarjima qilish muammolari. Qo'shma so'zlarning so'z yasashning keng tarqalgan yo'llaridan biri ekanligi. An'anaviy va zamonaviy tilshunoslikda qo'shma so'zlarni tasnif qilish asoslari. Qo'shma so'z yasashning har xil turlari, ularning keng tarqalganligi. Qo'shma so'zlarni ona tiliga tarjima qilish yo'llari. Qisqartma so'zlar (abbreviatsiya). Qisqartma so'zlarning turlari. Klippinglar. Qisqartma so'zlarni tarjima qilishdagi qiyinchiliklar. So'z yasashning boshqa usullari: ma'no kengayishi, tovush va urg'u ko'chishi, tovushga taqlid qilish va reduplikatsiya, grammatik shakllarning leksikalizatsiyalashuvi va so'z yasashda har xil turlarning birikuvi.

5- mavzu. Frazzeologiya
Frazzeologiyaning maqsad va vazifalari. Turg'un va erkin birikmalarni farqlash muammosi, ularni farqlovchi belgilar. Leksik birikish. Turg'un birikmalar va ularning har xil mezonlarga asosan tasnifi. Frazzeologik birliklarning yuzaga kelish yo'llari. So'z va so'z birikmasining o'xshashligi va farqi. Frazzeologik birliklar va ularni tarjima qilish muammolari.

6- mavzu. Etimologiya
Til lug'at tarkibining etimologik jihatdan tasnifi. O'rganilayotgan tilda keyin paydo bo'lgan va boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar. Xorijiy tillardan kirib kelgan so'zlarning turlari, o'zlashtirilishi, assimilyatsiyasi, lug'at tarkibi va so'z yasash tizimiga ta'siri. Baynalminal so'zlar. Etimologik lug'atlar.

7- mavzu. Leksikografiya
Leksikografiyaning fan sifatida rivojlanishi. Lug'atlarning asosiy turlari: ensiklopedik, lingvistik, izohli va tarjima lug'atlari. Lug'at turlari muammosi va ularni yaratish usullari. Lug'atlar uchun so'z tanlash, lug'at maqolalarining tuzilishi va boshqalar. Ingliz, nemis, fransuz va ispan tillaridagi lug'atlarning asosiy turlari: izohli va tarjima lug'atlari, sinonimlar lug'ati, frazeologik birliklar lug'ati, etimologik, ideografik, maxsus lug'atlar, neologizmlar lug'atlari va boshqalar.

O'quv lug'atlarining tuzilishi (so'zlarning birikish yo'llari lug'ati, ko'p qo'llaniladigan so'zlar lug'ati). Turli lug'atlarda so'z ma'nolarini ochib berish yo'llari. Tarjima jarayonida lug'at bilan ishlash, So'zning izohli tahlilini o'rganish, boshqa lug'atlardagi izohlari bilan qiyoslash. Til lug'at tarkibining o'zgarishi sotsiolingvistik hodisa ekanligi. Lug'at tarkibining sifat va son jihatidan o'zgarishi. Lug'at tarkibining leksik va stilistik tasnifi. So'zlarni ishlatilishi jihatidan tasnif etish. Umumiste'mol so'zlar va maxsus leksika. Arxaizmlar, istorizmlar, neologizmlar, ularning tarixiy bog'liqligi va o'zaro ta'siri. Asosiy va yordamchi so'z turkumlarining son jihatidan o'zaro farqi. Nomlashning faolligi va lug'at tarkibining boyish yo'llari. So'zning ma'no taraqqiyoti rivoji, boshqa tillardan kirgan so'zlar qatlami.

Nazariy grammatika
1-mavzu. Nazariy grammatika faniga kirish
Morfologiya va sintaksis. Grammatikaning ta'rifi. Grammatik shakl va grammatik ma'no. Til va nutq. Aktualizatsiya. Grammatik qurilishning birliklari. Tilni grammatik jihatdan tasvirlashning turlari. Grammatikadagi

metod va nazariy yo'nalishlar. Grammatikadagi asimmetriya hodisasi. Funktsional yondashuv. Grammatik kategoriyalar. Grammatik kategoriyaning mazmun plani. Grammatik kategoriyaning ifoda plani.

2-mavzu. Morfologiya
O'rganilayotgan tilning grammatik vositalari: so'z tartibi, yordamchi so'zlar, grammatik qo'shimchalar, urg'u va intonatsiya, o'zak tarkibidagi tovushlar o'zgarishi. Morfema, morf, allomorf va ularning strukturaviy turlari. Morfemanning turlari. Analitik shakl tushunchasi. Til grammatik tizimining xususiyatlari. So'z turkumi. Asosiy so'z turkumlari. Mustaqil va yordamchi so'zlar. O'rganilayotgan tilda so'z turkumlarining umumiy xususiyatlari. So'z turkumlarining shakl va ma'nolari. Transpozitsiya xodisasi.

3- mavzu. Ot so'z turkumi
Xorijiy tilda otning distributiv belgilari. Ularning boshqa so'z turkumlari yordamida qo'shilishi. Otning so'z turkumi sifatida morfologik va semantik xarakteristikasi. Otlarning asosiy semantik guruhlari. Son kategoriyasi. Otlarda ko'plik kategoriyasining ishlatilishi. Jamllovchi va partitiv otlar. Determinativlar. Determinativlarning so'z turkumi sifatidagi umumiy xossalari. Determinativlarning semantikasi. Kelishik kategoriyasi, kelishik kategoriyasi haqida har xil nazariyalar. Egalik kelishigining shakli va uning qo'llanish xususiyatlari. Aniqlik-noaniqlik kategoriyasini ifodalovchi asosiy vosita. Artiklning umumnazariy muammolari, artiklning funksiyalari, Rod kategoriyasi

4- mavzu. Sifat va ravish
Sifat so'z turkumi sifatida. Uning asosiy xususiyatlari. Sifatning semantik tasnifi. Qiyoslash kategoriyasiga oid olimoslarning semantikasi, sintaktik xossalari, grammatik kategoriyalari va shakllari. Ravishning semantik - grammatik guruhlari. Adverbializatsiya.

5- mavzu. Fe'l
Fe'l - so'z turkumi sifatida. Uning leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlari, umumiy va farq qiluvchi tomonlari. Fe'lning morfologik vazifasiga ko'ra tasnifi: mustaqil fe'llar, o'timli va o'timsiz fe'llar, ma'no jihatidan tugallangan va tugallanmagan fe'llar. Fe'lning grammatik kategoriyalari: aspekt (tarz) kategoriyasi, nisbat kategoriyasi. Majxul nisbatning keng tarqalish sabablari. Majxul konstruksiyalarning qo'llanish

xususiyatlari. Fe'l mayllari. Ular to'g'risidagi zamonaviy konsepsiyalar. Fe'lining semantik - grammatik guruhlar. Fe'l tizimidagi grammatik ma'nolarni ifoda qilish vositalari. Fe'ning shaxssiz formalar. Infinitiv, gerundiy va sifatdosh.

6- mavzu. Son, Olmosh

Son-so'z turkumi sifatida. Conning turlari. Sonning gapdagi vazifalari. Olmosh so'z turkumi sifatida. Olmoshning kelishik kategoriyasi. Olmoshning semantik va strukturaviy turlari.

7- mavzu. Yordamchi so'z turkumlari

Artikl, ko'makchi, bog'lovchi, yuklama va modal so'zlar.

8- mavzu. Sintaksis

Gap tushunchasini aniqlash xaqidagi asosiy fikrlar. Gapni aniqlashda klassik yondashuv, Gap tasnifi. Gapning maqsadga ko'ra turlari: bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli gaplar. Gapda ellipsis tushunchasi. Bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli gaplarning farqi. Gap - kommunikatsiya birligi sifatida, gapning vazifasi, tuzilishi. Asosiy va ikkinchi darajali bo'laklar. Ega. Eganing ifoda vositalari. Kesim - gapning asosiy belgisi sifatida. Modallik tushunchasi. Kesimning asosiy xususiyati. Modallik kategoriyasining ifoda usullari. So'z birikmasi. Birikma xosil bo'lish omillari. So'z birikmasining strukturaviy - funksional tipologiyasi. So'z birikmasining komponentlari o'rtasidagi semantik munosabatlar. Gap bo'laklarining strukturaviy tiplari. Gap bo'laklari va so'z turkumlari o'rtasidagi munosabat. Predikativlik munosabatlarning o'ziga xos shakllariga ega bo'lgan gaplar. Qisqartirilgan sintaktik strukturaga ega bo'lgan gaplar. To'liqsiz gaplar. Atov gaplar. Polipredikativlik va murakkablashgan gaplar. Qo'shma gaplar. Bog'langan qo'shma gaplar. Ergashgan qo'shma gaplar.

9- mavzu. Til grammatik strukturasi tahlil qilishning zamonaviy metodlari

O'rganilayotgan til grammatik tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari. Grammatik ma'noni ifoda etuvchi vositalar. Grammatik kategoriyalar. Grammatik shakl va grammatik ma'no tushunchalari. So'zning sintetik va analitik shakllari. So'z turkumlari va gap bo'laklari orasidagi munosabat. So'zning morfologik strukturasi. Morfema va uning turlari. Kombinatorika tushunchasi. Morfologiya va Sintaksis. Sintaktik strukturalar. Sintaksisda

modellash tushunchasi. Gapni tahlil qilish metodlari. Grammatikaning turlari: an'anaviy grammatika, mantiqiy grammatika, strukturaviy grammatika, bevosita tashkil etuvchilarga ajratish grammatikasi, transformatsion grammatika, generativ grammatika, kelishik grammatikasi, kognitiv grammatika. O'rganilayotgan tilda til birliklari orasida kuzatiladigan sintaktik aloqalar turlari; Koordinatsiya, Subordinatsiya, Predikatsiya, Birlamchi va ikkilamchi predikatsiya tushunchalari. Murakkab farkibli strukturalar. Polipredikativ qurilmalarning strukturaviy-funksional tahlili.

Nazariy fonetika

1-mavzu. O'rganilayotgan tilda segment fonemalar

Segment fonemalarning artikulyatsion tomoni: tovushlar hosil bo'lishining to'rt mexanizmi (kuch, tebranish, rezonatorlik va to'siqni engish), ularga aloqador bo'lgan nutq organlari. Nutq organlarining tuzilishi, faoliyati va vazifalari. Unli tovushlarni tasnif qilishda o'zbek, rus, Evropa va Amerika olimlarining fikrlari. Unlilarning talaffuz turg'unligiga ko'ra (monoftong, diftong, diftongoid), tilning gorizontial va vertikal harakatiga ko'ra, lablarning holatiga ko'ra, tarixiy cho'ziqligiga ko'ra, nutq organlarining taranglashuviga ko'ra tasnifi. O'rganilayotgan til unillarini rus va o'zbek tili unillari bilan qiyoslash. Undosh tovushlarni tasnif qilishda rus, o'zbek, ingliz, nemis, fransuz, ispan va amerika olimlarining fikrlari. Undosh tovushlarni tovush paychalarning ishtirokiga ko'ra va talaffuz kuchiga ko'ra; faol va passiv nutq organlariga ko'ra; tovush hosil bo'lishida to'siqning turiga ko'ra va shovqinning xarakteriga ko'ra; kichik tilning faoliyatiga ko'ra tasnifi. O'rganilayotgan tilda affrikat tovushlarining soni haqida fikrlar. O'rganilayotgan tildagi undoshlarni rus va o'zbek tili undoshlari bilan qiyoslash. Unli va undosh tovushlarning hosil bo'lishida asosiy farqlar. Turli tillarda mavjud bir xil tovushlarning sifat jihatidan farqlanishi. Artikulyatsion baza tushunchasi. Segment fonemalar hosil bo'lishining akustik tomoni: nutq tovushlarining, fizik xususiyatlari (tovush tebranishi, cho'ziqligi, ovoz toni), ularning artikulyatsion shakli. Segment fonemalarning fonologik tomoni: fonemaga ta'rif berish muammosi.

2-mavzu. Fonema nazariyasi

Fonemaning uch xususiyati yaxlitligidan iboratligi: uning material (talaffuz) tomoni, abstraktligi, umumiyligi, funksional, ya'ni ma'no farqlay olish xususiyati. Fonema va uning variantlari (allofonlar). Segment fonemalarning konstitutiv va distinktiv vazifalari. Urg'usiz unillar va

ularning tasnifi. Transkripsiya va uning turlari. Nutq tovushlarining o'zgarishi va ularning turlari. Bu haqda Moskva va Sankt Peterburg olimlarining qarashlari. Assimilyatsiya, akkomodatsiya va eliziya kabi tovush o'zgarishi xususiyatlari.

3- mavzu. Tillarda bo'g'in qurilishi

Bo'g'in fonetikaning talaffuz birligi sifatida. Bo'g'inning nutqdagi vazifalari. Bo'g'in hosil qiluvchi tovushlar. Bo'g'inning tarkibiy qismlari va turlari. Bo'g'in boshida va oxirida unli va undoshlarning birika olishi. O'rganilayotgan xorijiy tilda bo'g'in ajratish qoidalari. Bo'g'in haqida mavjud nazariyalar. Bo'g'inning vazifalari.

4- mavzu. So'z urg'usi

So'z urg'usi tushunchasi, ularning turlari (dinamik, musiqiy, sifat va miqdor urg'ulari). So'z urg'usining xususiyatlari. Urg'uning o'rni va darajasi. Urg'u o'rni belgilovchi omillar (ressessiv, ritmik, grammatik va semantik), ularning o'zaro munosabati. So'z urg'usining vazifalari.

5- mavzu. Intonatsiya

Intonatsiya ta'rifi. Tor va keng ta'rif. Intonatsiyaning tashkiliy qismlari va ularning vazifalari. Intonatsiya va prosodiya. Intonatsiyaning melodik komponenti, uning ta'rifi va vazifalari. Tekst hosil qilishda melodik komponentning roli. Melodik komponentning turlari. Intonatsiyaning gap urg'usi komponenti, uning ta'rifi va vazifalari. Gap urg'usining turlari. Gap urg'usi va so'z urg'usi munosabati. Gap urg'usining matn tuzishda ritmik va intonatsion guruhlar hosil qilishdagi roli. Gap urg'usining melodik komponent bilan o'zaro munosabati va gapning kommunikativ markazini hosil qilish qobiliyati. Gap urg'usining vazifalari. Intonatsiyani yozma ifodalash turlari (L.Armstrong va I.Uord sistemasi va R.Kingdon metodi). Intonatsiyaning raqamli va pog'onali ifodalanishi. Intonatsiyada nutq tezligi (temp), ovoz bo'yog'i (tembr), pauza (to'xtam) va ritm (urg'uli va urg'usiz bo'g'inlar ketma-ketligi) kabi birliklarning vazifalari. Intonatsiyaning fonologik vazifasi. Intonema tushunchasi. Intonatsiyaning matn hosil qilish vazifasi.

6- mavzu. Nutqning fonostilistik xususiyatlari

Fonostilistikaning asosiy o'rganish ob'ektlari. Talaffuz normasi va uning stilistik farqlanishi masalasi. Fonetik uslublarni ifodalashda ekstralingvistik va paralingvistik vositalar. Tovush va intonatsiya stilistikasi.

Intonatsion uslub turlari. Fonetik sinonimiya masalasi. Tovushlar simvolizmi tushunchasi.

1-mavzu. "Stilistika" fanning mazmuni, predmeti va metodi

Stilistika kursining dolzarbligi va vazifalari. Stilistika zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlari nigohida. Stilistikaning boshqa fanlar bilan bog'liqligi: stilistika va kommunikativ lingvistika, stilistika va pragmalingvistika, stilistika va lingvokulturologiya. Stilistika turlari: qiyosiy stilistika, amaliy stilistika, funktsional stilistika, individual uslub stilistikasi. Stilistik tahlil metodlari.

2-mavzu. Uslubiy leksika tarkibi

Uslubiy leksika tarkibi: Adabiy so'zlar, neytral so'zlar, va og'zaki so'zlar. Adabiy so'zlarning stilistik jihatlari va turlari: atama, arxaizm, neologizm, poetik so'zlar tushunchalari va ularning matndagi stilistik vazifalari. Og'zaki so'zlarning stilistik xususiyatlari va turlari: sleng, vulgargizm, evfemizm, sheva va jargon tushunchalari va ularning matndagi stilistik vazifalari. Tilda me'yor tushunchasi. SHaxsiy yondashuv va me'yor. Umumiy, adabiy, og'zaki va adabiy uslublar xususiyatlari. Registr tushunchasi.

3- mavzu. Funktsional uslub tushunchasi

Funksional uslub va uning turlari. Badiiy uslub xususiyatlari: she'riy, drama va nasr uslublarining asosiy til xususiyatlari. Ilmiy uslub xususiyatlari va vazifalari. Publitsistik uslub xususiyatlari va vazifalari. Axborot vositalari uslub xususiyatlari va vazifalari. Axborot vositalari matnida janr turlari va xususiyatlari. Rasmiy uslub vazifalari, rasmiy uslub turlari va ularning lisoniy xususiyatlari.

4- mavzu. Leksik stilistik vositalar

Ifoda va stilistik vosita tushunchasi. Stilistik vazifa tushunchasi va turlari. Leksik ma'no turlari. Stilistik vositalarning til sathlararo turlanishi: metafora, metonimiya, ironiya, epitet, mubolag'a, oksimoron, antonomasiya, zevgma, so'z o'yini tushunchasi, lisoniy ahamiyati va vazifalari.

5- mavzu. Leksik-sintaktik stilistik vositalar

O'xshatish, perefraza, litota, gradatsiya, antiteza, allyuziya, o'zlashtirma gap tushunchalari, ularning lisoniy ahamiyati va vazifalari.

6- mavzu. Sintaktik stilistik vositalar

Sintaktik stilistik vositalarning lisoniy ahamiyati va vazifalari. Gap qurilishidagi o'zgarishlarga asoslangan stilistik vositalar: bir bosh bo'lakli gap, inversiya, parallel konstruksiya, xiazm, takror, sanash, polisindeton, asindeton va ritorik so'roq gap. Og'zaki nutqda gap tarkibi o'zgarishlariga asoslangan stilistik vositalar: ellipsis, tugallanmagan gap, ajratilgan konstruksiya.

7- mavzu. Fonetik stilistik vositalar

Yufoniya, alliteratsiya, onomatopiya tushunchalari va ularning lisoniy ahamiyati va vazifalari.

8- mavzu. Matn tahlilining vazifasi.

Adabiy matn tushunchasi. Matn mazmuni, obraz strukturasi: muallif obrazi, tabiat obrazi, asar qahramoni obrazi, badiiy detal tushunchasi va uning turlari. Matn badiiy kompozitsiyasi. Badiiy detal turlari va vazifalari. Matn lingvistikasi asosiy tushunchalari, Matn kategoriyasi turlari: informativlik kategoriyasi, modallik kategoriyasi, matn bog'likligi va yaxlitligi kategoriyasi, matn segmentatsiyasi, o'rin payt kategoriyasi, intertekstuallik kategoriyasi. Badiiy asar nomlari, turlari va uning informativligi. Badiiy asar nomining konseptual axborotni ochib berishdagi o'rimi. Matn tahlili metodlari. Matnning konseptual ahamiyati. Matnning milliy – madaniy xususiyatlari. Matnning stilistik, pragmatik, lingvokulturologik jihatdan tahlil etish.

1-mavzu. Roman - german tillari haqida umumiy ma'lumot

Roman va german tillarining hind-evropa tillar oilasida tutgan o'rimi. Hozirgi zamon roman va german tillari, ularning tarqalishi va tasnifi. Roman va German qabilalari haqidagi ma'lumotlar: (Piteas, Yuliy Sezar, Tatsit) roman va german qabilalarining tasnifi va "xalqlarning buyuk ko'chishi" davrida ularning joylashishi. Roman - german va roman tillarining o'ziga xos xususiyatlari: undoshlarning birinchi ko'chishi, Grimm qonuni, Verner qonuni, unliarning o'zgarishi, otlarning turlanish tizimi, fe'llarning miqdor o'zgarishi va suffiksli fe'llarga ajralish tizimi, qadimgi alitbo, roman va german tillarining eng muhim yozma yodgorliklari va ularning tasnifi.

2-mavzu . Tillar tarixini davrlashtirish muammosi

Evropa qit'asida Kelt qabilalari. Rim qo'shinlarining Britaniya orollarini bosib olishi, Rimliklar qurgan tarixiy obidalar. Mintaqada g'arbiy german qabilalari va ularning Rim bilan aloqasi. Anglo-sakson, friz va yut qabilalarining Britaniya orollarini istilo qilishi va anglo – sakson davlatlarining yuzuga kelishi. Lotin tili va uning roman tillarining shakllanishidaagi o'rni va ahamiyati. Qadimgi alfavitlar va yozma yodgorliklar Nemis tilining paydo bo'lish tarixi. Roman-german tillari tovush tizimining tarixiy qonuniyatlari; palatalashuv. Sonor undosh birikmalari oldida unliarning cho'zilishi, keyingi undoshning tushib qolishi natijasida unliarning cho'zilishi. Undoshlarning birinchi va ikkinchi ko'chishi.

3-mavzu. Morfologiya

Roman-german tillari morfologiyasi. Otning grammatik kategoriyalari: rod, son, kelishik. Negiz asosida otlarning qadimgi tasnifi. Otlarda ko'plik shakllarining hosil bo'lishi va ularning turlari. So'zning morfologik strukturasi. Ichki fleksiya yordamida o'zakkdagi unlining o'zgarishi. Tashqi fleksiya. Fleksiyasiz tovush almashinishi.

4- mavzu. Qadimgi german va roman tillarida sifat, olmosh va son

Sifatning ikki xil turlanishi: kuchli va kuchsiz turlanish, turlanishlarning paydo bo'lishi. Kishilik olmoshlari, olmoshlarda grammatik kategoriyalar: shaxs, son (ikkilik sonining mavjudligi). Ko'rsatish olmoshlarning paydo bo'lishi. Sanoq sonlar. Tartib sonlar.

5- mavzu. Qadimgi roman-german davrida fe'l.

Kuchli va kuchsiz fe'llar. Preterit – prezent fe'llar va ularning morfologik xususiyatlari. Suppletiv fe'llar. Fe'llarning asosiy grammatik kategoriyalari: shaxs, son, zamon, mayl. Fe'lning analitik shakli masalasi. Nisbat kategoriyasi.

6- mavzu. Qadimgi roman va german tillarida sintaksis

Sintaksis. Gap turlari. So'roq gaplarda so'z tartibi. Gapda bosh bo'laklarning ifoda etilishi. Sodda gapda sintaktik aloqalarning ifodalanishi. Kelishiklarning vazifalari.

7- mavzu. Qadimgi roman- german tillari lug'at boyligi

Roman-german tillari lug'at tarkibi va ularning taraqqiyoti. Lug'at

tarkibining xususiyatlari. Umum hind – evropa va umum roman va german soʻzlari, lugʻat tarkibining boyib borishi va uning turli yoʻllari: Affiksalar yordamida soʻzlar yasash. Soʻz yasaliş jarayonining mahsuldor va kam mahsullik xususiyatlarini aks ettiruvchi affiksalar. Qoʻshma soʻzlar. qoʻshma soʻzlarni hosil qilish yoʻllari. Tovush almashishi (umlaut). Eski soʻzlarning yangi maʼnoga ega boʻlishi. Oʻzlashtirma soʻzlarning ishlatilishi.

8- mavzu. Oʻrganilayotgan til tarixining oʻrta davri

Oʻrta davrning asosiy tarixiy voqealari. Unlilar tizimining oʻzgarishi. Urgʻusiz unlilarning hosil boʻlishi va ularning keyinchalik tushib qolishi. Oʻrta davrda unlilarning choʻzilishi va qisqarishi. Diftonglarning choʻzilishi va qisqarishi. Diftonglarining oʻrta davrda choʻzilishi va qisqarishi. Diftonglarining oʻrta davrda monoftonglashuvi. YAngi diftonglarning hosil boʻlishi. Undoshlar tizimining oʻzgarishi. Oʻrta davrda grafikasidagi oʻzgarishlar. Morfologiya. 12-15 asrlarda morfologiyada sodir boʻlgan oʻzgarishlar. Otlarning turlanishida turlanishida kelishiklarning soddalashib borishi va ularning predlogi birikmalar bilan almashirilishi. Sifat darajalari. Qiyosiy darajalarda analitik shaklning yuzaga kelishi. Olmoshlarning turlanishida ikki kelishikning tizimga oʻtishi. Koʻrsatish olmoshlarida ikki turning hosil boʻlishi. YAngi olmoshlarning paydo boʻlishi. Aniq va noaniq artikllarning paydo boʻlishi. Kuchli feʼllar tizimidagi oʻzgarishlar. Feʼl boʻyicha hozirgi zamon sifatdosh shakllarning oʻziga xos hususiyati. Feʼlning aniq, majhul va oʻtgan zamon shakllarining yuzaga kelishi. Ravishdosh va infinitivning paydo boʻlishi. Ravishlarning suffiksalar yordamida yasalişhi. Suffikslarning soddalashuvi.

9- mavzu. Roman-german tillarida sintaksis

Gapning bosh boʻlaklaridagi qatʼiy tartibning asta – sekin qaror topishi. Qoʻshimcha gaplarning rivojlanishi. Oʻrta davr lugʻat tarkibining oʻziga xos xususiyatlari. Ijtimoiy tuzimning oʻzgarishi, hunarmanchilik, savdo-sotiq va qishloq xoʻjaligi taraqqiyoti munosabati bilan lugʻat tarkibining boyib borish yoʻllari. Eskingan soʻzlarning yangi maʼnoda ishlatilishi, affiksalar yordamida yangi soʻzlarning ishlatilishi. Ikki til, yaʼni skandinav va fransuz tillari hisobiga ingliz va nemis tili lugʻati tarkibining boyib borishi.

10- mavzu. Tillar taraqqiyotining yangi davri

Roman-german tillari taraqqiyoti tarixining yangi davridagi asosiy tarixiy voqealari. Milliy tilning vujudga kelishida poytaxt shevasining ahamiyati. Maxalliy shevalarning saqlanib qolishi va ularning ijtimoiy

koʻrinishlari. Kasb – humar jargonlarining paydo boʻlishi. Kitob nashr qilinishi munosabati bilan milliy til yozma shaklining keng tarqalib borishi. YAngi davrda sodir boʻlgan asosiy fonetik oʻzgarishlar. “Unlilarning buyuk koʻchishi”. Urgʻusiz boʻgʻindagi unlilarning tushib qolishi. YAngi unli tovushlarning paydo boʻlishi. Unlilar va undoshlar tizimida sodir boʻlgan boshqa oʻzgarishlar. Tillar grammatik tizimida sodir boʻlgan oʻzgarishlar. Feʼllarning notoʻgʻri tuslanishi tizimidan toʻgʻri feʼllar guruhiga oʻtishi. Majhul nisbatning rivojlanishi, ish – harakat va holat passivi maʼnolarning farqlanishi.

Seminar mashgʻulotlarda quyidagi mavzular muhokama qilinishi tavsiiya etiladi:

Seminar mashgʻulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiiya etiladi:

1. Leksikologiyaning maqsadi va vazifalari.
2. Semasiologiya: Soʻzlarning fonetik va semantik aspektlari. Kontekst turlari, maʼnoning turlari va soʻzning leksik-semantik variantlari, semantik maydon. Monosemiya, polisemiya, giper-giponimiya muammolari. Sinonim, antonim va omonimlar va ularning tasnifi.
3. Soʻzning morfologik qurilishi: morfemalar tiplari va sinflari. Soʻz tuzilishidagi diaxronik va sinxronik qarash. Morfema va allomorfe-malar.
4. Soʻz yasashi: leksik nom berishda soʻz yasashning roli va oʻrni. Konversiya, uning kelib chiqishi va asoslari. Qoʻshma soʻzlarni ona tiliga tarjima qilishning yoʻllari. Qisqartma soʻzlar.
5. Frazeologiya: turgʻun va erkin birikmalarni farqlash muammosi. Ularni farqlovchi belgilar. Frazeologik birliklar va ularni tarjima qilish muammolari.
6. Etimologiya: Oʻrganilayotgan tilda paydo boʻlgan soʻzlar va boshqa tillardan kirib kelgan soʻzlar va ularning turlari, oʻzlashtirilishi, assimilyatsiya, internatsional soʻzlar va etimologik dubletlar.
7. Leksikografiya: oʻrganilayotgan til lugʻat tarkibining umumiy tasnifi.
8. Nazariy grammatika fanining maqsadi va predmeti.
9. Til va nutq. Grammatikada metod va nazariy yoʻnalishlari. Grammatik tahlilusullari.
10. Soʻzning morfologik qurilishi: morfemalar tiplari va sinflari. Soʻz tuzilishidagi diaxronik va sinxronik qarash. Morfema va allomorfe-malar.
11. Morfologiya. Grammatik shakl va grammatik maʼno. Grammatik maʼnoni ifodalash usullari.
12. Oʻrganilayotgan tildagi soʻzlarni turkumlarga ajratishning
13. Oʻrganilayotgan til morfologiyasi. Oʻrganilayotgan tilda ot soʻz turkumi

vauning grammatik kategoriyalari.

14. O'rganilayotgan tilda fe'l so'z turkumi. Fe'lining strukturasi va grammatik kategoriyalari.
15. O'rganilayotgan tilda fe'lining semantik xususiyatlari
16. O'rganilayotgan tilda Sintaksis. So'z birikmasi va sodda gap.
17. Sintaksis. Sintaktik birliklar. Sintaktik aloqalar turlari. So'z birikmalarining asosiy belgi va xossalari.
18. Gap nazariyasi. Gapning ta'rifi va klassifikatsiyasi. Mikro vamakrosintaksis. Gapni tahlil qilish metodlari.
19. O'rganilayotgan tilda gapning tuzilish jihatdan turlari.
20. 20. O'rganilayotgan tilda qo'shma gap turlari.
21. Nazariy fonetikaning maqsad va vazifalari.
22. Fonologik nazariyalar.
23. O'rganilayotgan tilda talaffuzning asosiy turlari.
24. O'rganilayotgan tilda unli tovushlar tizimi.
25. O'rganilayotgan tilda undosh tovushlar tizimi.
26. Fonemalarining nutqdagi o'zgarishi.
27. O'rganilayotgan tilda bo'g'in tuzilishi.
28. O'rganilayotgan tilda so'z urg'usi.
29. O'rganilayotgan tilda ohang tuzilishi. 30. Fonostilistika va uning asosiy xususiyatlari.
31. Uslubiyot predmeti, uning asosiy yo'nalishlari va boshqa nazariy fanlar bilan aloqasi.
32. Funktsional uslub turlari, ularning vazifalari va lingvistik xususiyatlari. (badiiy, ilmiy, va gazeta va publitsistik, rasmiy hujjatlar).
33. O'rganilayotgan til leksikasining uslubiy tarkibi;
34. Leksik stilistik vositalar (metafora, metonimiya, ironiya, epitet, oksyumoron, giperbola, antonomasiya, zevgma va so'z o'yini) ning lisoniy ahamiyati va vazifalari.
35. Leksik-sintaktik stilistik vositalar (o'xshatish, perefraza, litota, antiteza, gradatsiya) ning lisoniy ahamiyati va vazifalari.
36. Sintaktik stilistik vositalar (inversiya, takrorlash, ritorik savol va boshqalar)ning lisoniy ahamiyati va vazifalari.
37. Fonetik stilistik vositalar (yufoniya, alliteratsiya, onomotapiya)ning lisoniy ahamiyati va vazifalari.
38. Matn tahlili vazifasi. Badiiy asar matn tahlilining ob'ekti sifatida badiiy matnning o'ziga xosliklarini ko'rsatish, badiiy detal, matn kompozitsiyasi. Matn kategoriyalari. Informativlik kategoriyalari. Matmni idrok etish va uning tahlili.
39. Roman va German tillari haqida umumiy ma'lumot. 40. Tillar taraqqiyotining yangi davri.

41. Roman-german tillari taraqqiyoti tarixining yangi davridagi asosiy tarixiy voqealari.

42. Milliy tilning vujudga kelishida poytaxt shevasining ahamiyati.

Maxalliy shevalarning saqlanib qolishi va ularning ijtimoiy ko'rinishlari.

43. Kasb – hunar jargonlarining paydo bo'lishi. Kitob nashr

44. YAngi davrda sodir bo'lgan asosiy fonetik o'zgarishlar. Tillar grammatik tizimida sodir bo'lgan o'zgarishlar.

45. Fe'llarning noto'g'ri tustlanishi tizimidan to'g'ri fe'llar guruhiga o'tishi.

46. Majhul nisbatning rivojlanishi, ish – harakat va holat

Seminar mashg'ulotlari multimedia vositalari bilan jihozlangan auditoriyada o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

1. Leksikologiya va til.
2. So'zlarning fonetik va analitik aspektlari.
3. So'z ma'nosining tuzilishini o'rganishda paradigmatika vasintagmatikaning roli.
4. Ma'noning turlari va so'zning leksik - semantik ma'nolari.
5. Sinonim, antonim va omonimlar.
6. So'zning morfologik qurilishi.
7. Turg'un va erkin birikmalar.
8. So'z birikmasining o'xshashligi va farqi.
9. Lug'at tarkibining sifat va son jihatlarini.
10. Arxaizmlar va neologizmlar.
11. Leksik nomlanishning faolligi va lug'at tarkibining boyish yo'llari.
12. Til lug'at tarkibining etimologik jihatdan tasnifi.
13. So'zlarning etimologiyasi.
14. Leksikografiyaning dolzarb masalalari.
15. Gapda so'zlarning ma'noli birikish usullari.
16. Ot so'z turkumi va uning grammatik kategoriyalari.
17. Fe'l so'z turkumi va uning grammatik kategoriyalari.
18. Sifat so'z turkumi va uning turlari.
19. Son kategoriyasi.
20. Gapning tuzilishiga ko'ra turlari.
21. Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari.
22. O'rganilayotgan tildada qo'shma gaplar. (Bog'langan qo'shma gap vaergashgan gapli qo'shma gap)
23. Gapda sintaktik aloqalar turlari.
24. Birlamchi va ikkilamchi predikatsiya tushunchalari.
25. Tilda fonologik nazariyalar.
26. O'rganilayotgan tilda talaffuz turlari.

27. O'rganilayotgan tilda tovushlar qisqarishi (reduksiya turlari).
28. O'rganilayotgan tilda unli tovushlar.
29. O'rganilayotgan tilda undosh tovushlar.
30. O'rganilayotgan tilda monofong, diftong va triftonlar. 31. O'rganilayotgan tilda ohang va uning turlari.
32. O'rganilayotgan tilda so'z urg'usi va ma'no urg'usi.
33. Sintagma va uning qo'llanilishi.
34. Fonostilistika va uning asosiy xususiyatlari.
35. Adabiy –kitobiy tilda so'zlarining xususiyatlari va vazifalari.
36. Og'zaki uslubga xos so'zlarining til xususiyatlari va vazifalari.
37. Metafora va metonimiya.
38. Epitet, oksyumoron, giperbola.
39. Antonomaziya, o'xshatish va uning o'rganilayotgan tildagi turlari.
40. Litota va perifrazaning lingvo-kulturologik xususiyatlari.
41. O'rganilayotgan tilda takror va uni qiyosiy o'rganish.
42. Ritorik so'roq.
43. Fonetik stilistik uslublar.
44. Stilistik sinonimlar va ularning badiiy nutqda qo'llanilishi.
45. Idiomalarning stilistik xususiyatlari.
46. Maqol va matallarning stilistik vazifalari.
47. CHet tildan o'zlashtirilgan so'zlar va ularning stilistik ahamiyati.
48. Stilistik uslublarining badiiy matnda ishlatilishi.
49. SHE'riy uslubning o'ziga xos stilistik jihatlari.
50. Badiiy matnda poetik detallar.
51. Leksik kategoriyalari.
52. O'rganilayotgan til tarixini davrlarga bo'lib o'rganish.
53. O'rganilayotgan til qadimgi davrining fonetik xususiyatlari.
54. O'rta davr fonetik strukturasi.
55. O'rganilayotgan til qadimgi davridagi yozma yodgorliklar.
56. O'rganilayotgan til tarixiy davri lug'at boyligi.
57. O'rganilayotgan til o'rta davri lug'at boyligi.
58. O'rganilayotgan til o'rta davri va xususiyatlari.
59. O'rganilayotgan til yangi davr grammatikasining o'ziga xos til xususiyatlari.
60. O'rganilayotgan til yangi davr shevalarining o'ziga xos til xususiyatlari.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

Fan bo'yicha kurs ishi. Kurs ishi fan mavzulariga taalluqli masalalar yuzasidan talabalarga yakka tartibda tegishli topshiriq shaklida beriladi. Kurs ishining hajmi, rasmiylashtirish shakli,

baholash mezonlari ishchi fan dasturida va tegishli kafedra tomonidan belgilanadi. Kurs ishini bajarish talabalarda fanga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qilishi kerak.

Kurs ishi uchun taxminiy mavzular:

1. Semasiologiya: So'zlarning fonetik va semantik aspektlari.
2. Kontekst turlari, ma'noning turlari va so'zning leksik-semantik variantlari, semantik maydon. Monosemiya, polisemiya, giperonimiya - giponimiya muammolari.
3. Sinonimlar va ularning tasnifi.
4. Antonimlar va ularning tasnifi.
5. Omonimlar va ularning tasnifi.
6. So'zning morfologik qurilishi: morfemalar tiplari va sinflari. So'z tuzilishi, diaxronik va sinxronik qarashlar.
7. Morfema va allomorfealar.
8. So'z yasash: leksik nom berishda so'z yasashning roli va o'rni.
9. Konversiya, uning kelib chiqishi va asoslari.
10. Qo'shma so'zlarni ona tiliga tarjima qilishning yo'llari.
11. Qisqartma so'zlar.
12. Frazeologiya: turg'un va erkin birikmalarni farqlash muammosi. Ularni farqlovchi belgilar. Frazeologik birliklar va ularning shakllanish etimologiyasi.
13. Etimologiya: O'rganilayotgan tilda paydo bo'lgan so'zlar va boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar va ularning turlari, o'zlashtirilishi, assimilyatsiya.
14. Internatsional so'zlar va etimologik dubletlar.
15. Leksikografiya: o'rganilayotgan til lug'at tarkibining umumiy tasnifi.
16. So'zlarning fonetik va fonologik aspektlari.
17. O'rganilayotgan tilda talaffuzning stilistik xususiyatlari.
18. Muloqot jarayonida talaffuzning kommunikativ xususiyatlari.
19. O'rganilayotgan tilda tovushni o'rganishda asosiy yo'nalishlar.
20. O'rganilayotgan tilda variantlarida o'ziga xos fonetik xususiyatlar.
21. O'rganilayotgan tilda unli tovushlar.
22. O'rganilayotgan tilda undosh tovushlar.
23. O'rganilayotgan tilda ohang turlari.
24. O'rganilayotgan tilda urg'uning turlari.
25. So'zning morfologik qurilishi: morfemalar tiplari va sinflari.
26. So'z tuzilishidagi diaxronik va sinxronik qarash. Morfema va allomorfealar.
27. Grammatik kategoriyalar, grammatik shakl va grammatik ma'no.
28. O'rganilayotgan tilda so'zlarning turkumlarga ajratilishining asosiy tamoyillari.
29. O'rganilayotgan tilda morfologiyasi. Ot so'z turkumi va uning grammatik kategoriyalari.

30. O'rganilayotgan tilda fe'l so'z turkumi. Fe'lning strukturasi vagrammatik kategoriyalari.
31. O'rganilayotgan tilda fe'lning semantik xususiyatlari.
32. O'rganilayotgan tilda Sintaksis. So'z birligmasi va sodda gap.
33. Sintaksis. Sintaktik birliklar. Sintaktik aloqalar turlari.
34. So'z birligmasining asosiy belgi va xossalari.
35. Gap nazariyasi. Gapning ta'rifi va klassifikatsiyasi.
36. O'rganilayotgan tilda gapning tuzilish jihatdan turlari.
37. Stilistika fanidagi yangi yo'nalishlar (kommunikativ, kognitiv, etnostilistika).
38. Proza janrining o'ziga xos xususiyatlari.
39. Poeziyaning o'ziga xos xususiyatlari.
40. Dramaning o'ziga xos xususiyatlari.
41. Notiqlik uslubining o'ziga xos xususiyatlari.
42. Ilmiy uslubning o'ziga xos xususiyatlari.
43. Rasmiy uslub va uning til xususiyatlari.
44. Emosionallik stilistik kategoriya sifatida.
45. Poetik so'zlarning roli.
46. CHet tildan o'zlashtirilgan so'zlar.
47. Slenglar va ularning til xususiyatlari.
48. YOzma nutqning o'ziga xos xususiyatlari.
49. Stilistik ma'no va vazifa.
50. Metafora va metonimiyani kognitiv tadqiq qilish.
51. Matnning badiiy xususiyatlari.
52. Badiiy matnda ramzlar.
53. Badiiy matnda poetik detallar.
54. Matnda informativlik kategoriyasi.
55. Matnda modalik kategoriyasi.
56. Badiiy matnning qismlarga bo'linishi.
57. Badiiy matn qismlarining bir biriga mantiqiy bog'lanishi.
58. Badiiy matnda sarlavhaning roli.
59. Badiiy matnda frazeologik birliklarning stilistik funksiyalari.
60. Badiiy matnda sarlavhaning mazmuni ochib berish vazifasi.

Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. **Talaba:**

- o'rganilayotgan xorijiy til fonetik strukturasi, grammatik qurilishi va lug'at tarkibining asosiy tushunchalari va kategoriyalari to'g'risida **tasavvurga ega bo'lishi;**
- tilshunoslik nazariyasining asoslarini, lingvistik qonunlar va tushunchalar kategoriyalarini, muloqot jarayonlarining funksional diskurs xususiyatlarini **bilishi va ulardan foydalanish;**

– isoniy muloqot jarayonlarini tahlil qilish usullarini qo'llash, nutqiy muloqot muammolari bo'yicha to'g'ri qaror qabul qilish **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.**

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarning ushbu fanni o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatсион pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga egadir.

Talabalarning amaliy malakalarini oshirish maqsadida ta'lim jarayonining individual va differentsiallashtirgan interaktiv metodlardan foydalaniladi.

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarni qo'llash nazarda tutilgan. Ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsiyalar va elektron-didaktik texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Kichik guruhli musobaqalar o'tkazish tavsiya qilinadi. Amaliy mashg'ulotlarda innovatsion texnologiyalardan "Proyekt", "Prezentatsiya", "Aqliy hujum", "Klaster", "Sinkveyn" usullaridan keng foydalanish samara beradi.

Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid terminologik apparat, qonuniyatlar va asosiy tushunchalarni bilishi, "Tillar o'qitish metodikasi va ta'lim texnologiyalari" fanining imkoniyatlarini bilishi, yoshga doir psixologiyaning o'ziga xos xususiyatlari va uning gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi bilan aloqasi borasida tasavvurga ega bo'lishi, muayyan nazariy masalalarga oid fikrlarni bayon etish, ayni fikrlarga nisbatan tanqidiy munosabatini shakllantirish va ifodalash; ilmiy tadqiqot jarayonida dolzarb masalalarni aniqlay olish va til birliklarini tahlil qilishda ularning yechimini topa olish; ta'lim jarayonida ijtimoiy va pedagogik fanlar integratsiyasining asosiy qonuniyatlarini bilishi va amalda qo'llay olishi hamda joriy, oraliq va yakuniy nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish va topshirish.

Asosiy adabiyotlar

1. Abduazizov A.A. English Phonetics. Tashkent, 2007.
2. Antrushina G.B. Leksikologiya angliyskogo yazyika. Moskva: "Drofa", 2006
3. Ashurova D.U., Galiyeva M.R. Stylistics of Literary text. Tashkent: "Turon-Iqbol", 2016
4. Blokh M.Y. Theoretical Grammar of the English Language. M.: , 2004

5. Eastwood J. Oxford guide to English grammar. Oxford, OUP, 2002.
6. Galperin I.R. Stylistics. M.: Higher School, 2000.
7. Hogg R. Cambridge History of the English language, Volume I, 2005.
8. Iriskulov M., Kuldashev A. Theoretical Grammar of the English Language. T.:2008
9. Muminov O.M. Lexicology of the English language. T.: 2006.
10. Nino Kirkavialidze. Theoretical Course of English Grammar. Tbilisi, 2013
11. Peter Roach "English phonetics and phonology" Cambridge University press, 2000, 2 nd edition
12. Rastorguyeva T. A. "A history of the English language". M.: Vlados, 2003.
13. Sachkova E. V. "Lectures on English Stylistics". Moskva – 2012.
14. Sokolova M.A. Theoretical Phonetics of Englis. Moskva: "Feniks", 2010.
15. Qo'ldoshev A. "Ingliz tili tarixi". T.: 2011 (ingliz tilida)

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 292. b.
2. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 47 b.
3. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilanbirga quramiz. "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 485 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda
5. Arnold I.V. The English Word. Moskva, 1986.
6. Arsenyeva A.A i dr. Vvedenie v germanskuyu filologiyu. Moskva. 1983.
7. Boboxanova T.A. Ingliz tili stilistikasi. T.: O'qituvchi, 1995.
8. Davletbaeva D.N. Lectures on English lexicology Kazan-2010
9. Downing A., Locke F. English Grammar. A University Course. Routledge, 2006, 640 p.
10. Ginzburg. R.Z., Xidekel S.S., Knyazeva G. YU., Sankin A.A. A course in Modern English Lexicology. Moskva, 1979.
11. Hogg R. An Introduction to Old English. Edimborough University Press, 2002, 174p.
12. Ilbish.B.A. "Istoriya angliyskogo yazyka".-M., 1983 (ingliz tilida).

13. Ilbish B.A. Structure of Modern English.-M., 1975.
14. Kunin G. Historical changes and English word-formation: New vocabulary items.-N.Y., 1986.
15. Kuxarenko V.A. Seminars in style.- M.: Vysshaya shkola, 1971.
16. Kuxarenko V.A. Praktikum po stilistike angliyskogo yazyka. M.: Vysshayashkola, 1986.

Axborot manbalari

1. <http://www.britishcouncil.org>
2. <http://www.bbc>
3. <http://encyclopedia.farlex.com>
4. <http://pot.ru/index.html>.<http://www.oup.co.uk>
5. www.onestopenglish.com.<http://youreng.narod.ru/teoper.html>
6. Website dedicated to linguistics: www.linguist.org
7. Russkiy filologicheskiy portal: www.philology.ru
8. www.natlib.uz
9. www.dissercat.ru 10. www.nauka.ru
11. www.dissorg.com
12. www.uzscience.uz 13. www.linguist.org

Buxoro davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

Fan uchun mas'ul:

Z.I.Rasulov – BuxDU, "Ingliz tilshunosligi" kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
N.S.Qobilova – BuxDU, "Ingliz tilshunosligi" kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
F.S.Vahidova – BuxDU, "Ingliz tilshunosligi" kafedrasida katta o'qituvchisi

Taqrizchilar:

A.A.Haydarov – BuxDU, "Ingliz tilshunosligi kafedrasida dotsent, filologiya fanlari nomzodi
Gadoyeva M.I. – BuxDU, "Ingliz tilshunosligi" kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

